

**JAMIYATDA PSIXOLOGIK XIZMATNING TUTGAN O'RNI**  
**HAMDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

***Masharipova Gulmira Rasulovna***

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqa'la tumani 5-umumta'lim maktab  
amaliyotchi psixologi*

***Masharipova Ilmira Nurullayevna***

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqa'la tumani 54-umumta'lim maktab  
amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** O'zbekistonda psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruhlarga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilishi lozim.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, fan, rivojlanish, jadallik, o'quv-qo'llanmalar, dolzarb masalalar, psixik jarayonlar.

## **KIRISH**

Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, transport, radio, televideeniye va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Psixologiya erishgan yutuqlari shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni harakatga keltirishda alohida ahamiyat kasb qilmoqda hamda shu asnoda mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir o'tkazmoqda. Zamonaqiy psixologiyada elektron-hisoblash texnikasi, elektr va kimyoviy vositalar yordami bilan psixikani chuqur o'rganish kabilar qo'llanilmoqda. Psixologiyada insonni, uning ruhiy kechinmalarini, rivojlanish bosqichlarini, kognitiv faoliyatini o'rganishda bir nechta metodlar qo'llaniladi. Shulardan biri, o'zini-o'zi kuzatish (introspeksiya) metodi atrofida keskin baxslar davom etmoqda. Ba'zi yo'nalishdagi psixologlar uni tadqiqot o'tkazishning asosiy metodi deb ta'kidlasalar, boshqalari esa uning cheklanganligini

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

e'tirof qiladilar, buning o'rniga ob'yektiv metodlardan foydalanishni tavsiya etadilar. Ob'yektiv metodlar tufayli psixikaning moddiy negizi aniqlangan, inson ichki munosabatlari bilan sub'yektiv holatlar sababiy bog'liqligi yakka shaxsda, jamoada namoyon bo'lishi isbotlangan. Juhon hamjamiyatida AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Shvetsariya mamlakatlarida ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida, universitetlarda psixologik izlanishlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

Vaqtlar, zamonlar o'tib borarkan, Yer o'lchamlari o'zgarib bordi, shu bilan birgalikda insonlarning ruhiy o'lchamlari, ruhning rivoj darajasi, karma, chakralar kabi tushunchalarni o'z ichiga olgan yangi yo'naliш – ezoterika yo'naliш ham paydo bo'ldi. Garchi bu yo'naliш ilmiy-amaliy jihatdan asoslanmagan bo'lsa-da, bugungi kunda ushbu yo'naliшda dunyoning eng yetakchi va ilg'or psixologlari faoliyat yuritmoqda hamda psixologik yordamga muhtoj kishilar uchun foydali bo'lib qolmoqda.

Inson ruhiyati haqidagi fan, ya'ni psixologiya insonlarga foydaliligi va qiziqarligi jihatidan nafaqat eramizdan oldingi yillarda, balki bugungi axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar rivojlanayotgan bir paytda ham o'z o'rnnini va ahamiyatliligini saqlab qolgan yetakchi fan yo'naliшlaridan biri hisoblanadi. Insonlar uchun har bir inson rivojlanish va yuksalish bosqichida o'zi haqida anglashlarga ega bo'lish va shu asnoda o'zini yanada rivojlantirish istagi kuchli bo'lganligi sababli psixologiya fani yaqin kelajakda ham o'zining yetakchi o'rnnini va ahamiyatliligini saqlab qoladi.

Psixologiya fanining fan sifatida shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Psixologiya fani tabiatshunoslik fanlari va falsafa negizida paydo bo'lgan bo'lib, to hanuzgacha uning na gumanitar na tabiiy fanlar qatoriga kiritilishi aniqlangani yo'q. Chunki psixologiya ilohiy fandir. Inson ongi, his-tuyg'ulari, voqealikni boshqarishi, insonlar bilan muloqotga kirishishi, ichki kechinmalari bu barchasi psixologiya fanining asosiy tamoyillaridir. Psixologiya eng qadimiy fanlardan bo'lib, bundan 2,5 ming yil ilgari jon haqidagi ta'limot sifatida vujudga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

kelgan. Mil.avv. VII—V asrlarda o'tgan qadimgi grek faylasuflarining asarlaridayoq kishining jonli va ruhiy xayoti to'g'risida juda ko'p xilma-xil fikrlar bayon qilinganligini ko'ramiz. Bu masalalar qadimgi Xitoy va qadimgi Hind mutafakkirlarining muhokamalarida ham katta o'rin tutadi. Psixologiya taraqqiyotida XIX asrdagi eksperimentalar alohida ahamiyat kasb etdi.

Bu davrda psixologik real voqealikni o'rganish uchun metodlar majmuasi qo'llana boshlandi. Kuzatish, lab. eksperimenti, tabiiy eksperiment, faoliyat natijasini tahlil qilish, ruhiy jarayonlarni modellashtirish genetik metodi, test, ekspert baholash, intervyu, anketa, so'rovnama, tarjimai hol va h.k. XIX asr oxiri XX asr boshlarida qator psixologik ilmiy maktablar, yo'nalishlar vujudga keldi: bixevoirizm, geshtaltpsixologiya, personalizm, freydizm va h.k.

Qadim-qadimdan insonlar o'zi haqida, shu bilan birga, o'z ichki olamida bo'layotgan ruhiy jarayonlar bilan bog'liq savollarga javob topishga harakat qilib kelgan. Va bu o'z o'rnida biz sevib o'rganadigan psixologiya faniga asos solinishiga sabab bo'lган. Psixologiya ajoyib fan. Shu bilan birga, u ham yosh, ham eng qadimiy fanlardan biridir. "Psixologiya" atamasi tom ma'noda ruh haqidagi fan degan ma'noni anglatadi (Psyche — ruh; logos =fan)

Ilgari psixologiya metafizikaning bir qismi bo'lib, ruhning tabiatini, kelib chiqishi va taqdiri bilan shug'ullangan. U ratsional psixologiya deb ataldi. Ammo zamonaviy psixologiya empirikdir va ruh bilan bog'liq muammolar bilan shug'ullanmaydi [3]. Allaqaqachon antik davr faylasuflari zamonaviy psixologiya uchun shaxsiy bo'lган muammolar haqida o'ylangan. Ruh va o'zaro bog'liqligi, idrok, xotira va fikrlash masalalari; ta'lim va tarbiya, inson xulq-atvorining histuyg'ulari va motivatsiyasi va boshqa ko'plab savollar Yunonistonda birinchi falsafiy maktablar paydo bo'lganidan keyin miloddan avvalgi 6-7-asrlarda olimlar tomonidan ilgari surilgan. Ammo eski mutafakkir psixolar zamonaviy ma'noda emas edilar. Psixologiya fanining ramziy tug'ilgan kuni 1879 yil, Vilgelm Vundt tomonidan Germaniyaning Leyptsig shahrida birinchi eksperimental laboratoriya kashf etilgan yil. Shu vaqtgacha psixologiya spekulativ fan bo'lib qoldi. Va faqat V. Vundt psixologiya va eksperimentni birlashtirish erkinligini oldi. V. Vundt uchun

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

psixologiya ong haqida fan edi. 1881 yilda laboratoriya negizida eksperimental psixologiya instituti ochildi (hali ham mavjud), u davlat ilmiy markaz, balki psixologlar xalqaro markaziga aylandi.

Uyg'onish davrida Leonardo da Vinci, X. Vives kabilar Psixologiya rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. 18-asrga kelib M. V. Lomonosov, A.N. Radishchev, G. S. Skovoroda, T. Gobbs, B. Spinoza, G. Leybnits. J. Lokk, K. A. Gelvetsii, P. A. Golbax, D. Didro psixologiyada bir talay kashfiyat qildilar, uni amaliy ma'lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya taraqqiyotida umuman XIX asrdagi eksperimentlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda psixologik real voqelikni o'rganish uchun metodlar majmuasi qo'llana boshlandi: kuzatish, laboratoriya eksperimenti, tabiiy eksperiment, faoliyat natijasini tahlil qilish, ruhiy jarayonlarni modellashtirish genetik metodi, test, ekspert baholash, intervyu, anketa, so'rovnama, tarjimai hol va h.k. XIX asr oxiri —XX asr boshlarida qator psixologik ilmiy maktablar, hamda yo'nalishlar vujudga keldi: bixevoirizm, geshtaltpsixologiya, personalizm, freydizm va h.k. psixologiyaning rivojiga I. M. Sechenov (psixikaning reflektor tabiat), I. P. Pavlov (oliy nerv faoliyati) ta'limotlari muhim hissa bo'lib qo'shildi. Rossiyada V. M. Bexterev eksperimental laboratoriysi (Qozon, 1885), Harkov universiteti va N. N. Langening Odessadagi laboratoriysi, G.Chelpanovning Kiyevdag'i, S. Korsakovning Moskvadagi, keyinchalik V. M. Bexterev, A. Lazurskiy, A. Nechayevlarning Peterburgdag'i, V. Chijning Yuryev (Tartu, Estoniya)dagi eksperimental laboratoriyalari psixolgiya taraqqiyotiga alohida ta'sir o'tkazdi. 1912-yil Moskva universitetida Psixologiya instituti ochildi. Shu yili I. A. Sikorskiy tomonidan Kiyevda jahonda birinchi marta Bolalar psixologiyasi instituti tashkil qilindi. XX asr ning 1-yarmida Rossiyada K. N. Kornilov, P. P. Blonskiy va boshqa psixolog olimlar dialektikaga asoslangan ilmiy psixologiyani yaratishga kirishdilar. Hozirgi zamon psixologiyasi ko'p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan iborat fan hisoblanib, o'zining tadqiqot predmetiga ega bo'lgan ko'plab sohalardan tashkil topgan: umumiyl psixologiya, aviatsiya psixologiyasi, harbiy psixologiya, differensial psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya, ijodiyot psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy psixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixologiya tarixi, genetik psixologiya, amaliy psixologiya, eksperimental psixologiya, kasb psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy psixologiya va boshqa psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tadbiqiy sohalar vujudga kelishidir.

Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakillanib borganini ko'rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivoj topgan manixizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o'z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o'ziga xosligi kabi g'oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo'lмаган. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70- yillarning oxiri 80- yillarning boshida I.Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va erxotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon psixologiyasi boyib, turli-tuman bo'lib bormoqda, oxirgi yillarda psixologiyaning yangi sohalari: antropologik psixologiya, akmeologiya, tahdid va terrorizm psixologiyasi, xristianlik psixologiyasi, muloqot

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

psixologiyasi, davriy psixologiya, biokonstitutsion psixologiya, «buyukshunoslik» psixologiyasi, o'sish psixologiyasi, tirik hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul etish psixologiyasi, psixologik adabiyotshunoslik, eshitish qobiliyatlar psixologiyasi, ko'zi ojiz kar-soqovlar psixologiyasi, kitobxonlar va kitob psixologiyasi, mavh etish psixologiyasi, tushlar va tush ko'rish psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqirozli va xavfli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoteratik psixologiya, taqdir psixologiyasi, mutaassiblik psixologiyasi, qobiliyatlar psixologiyasi, xususiylik psixologiyasi, o'quv faoliyat psixologiyasi, ayollar psixologiyasi, tobe hulq-atvor psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotilliklar psixologiyasi, xizmat muloqoti psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi, tashqi ko'rinish psixologiyasi, oliy maktab psixologiyasi, buyruq psixologiyasi, savdosoti q psixologiyasi, OAV psixologiyasi, elektoral hulq-atvor psixologiyasi, erkaklar psixologiyasi, din psixologiyasi, tomalogiya, qo'rquv psixologiyasi, o'lim psixologiyasi, muqobil psixologiya va boshqalar faol shakllanib bormoqda.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o'ziga xos va yetakchidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абрамова, Г.С. Практическая психология: учебное пособие. Москва : Прометей, 2018. - 528 с.
2. S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 19 b.
3. Nishanova, Zamira Taskarayevna. Psixiologik maslahat: o 'q u v qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. – N 4 toplam
4. To'rt temperament :sanguine,flegmatik,xolerik va melanxolik shaxs turlari. 2017 y. - N 1 toplam.221 b.
5. Ziyo.net